

MAVZU: MAMLAKATLARARO TRANZIT ALOQALARINING RIVOJLANISH TARIXI VA IQTISODIY AHAMIYATI.

*Ilmiy rahbar: Bojxona instituti
bojxona nazorati kafedrasi dotsenti
B/x polkovnigi **B. Abduganiyev**
Bojxona instituti 4-kurs kursanti
G'aniyev Diyorbek*

Annotatsiya: Mamlakatlararo tranzit aloqalari insoniyat tarixida eng muhim iqtisodiy va geosiyosiy omillardan biri sifatida shakllanib kelgan. Ular orqali qadimdan tovarlar, odamlar, axborot va madaniyatlar harakati amalga oshirilgan. Tranzit tizimlarining rivojlanishi asosan savdo yo'llari, infratuzilma, xalqaro siyosiy munosabatlar va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq.

Аннотация: Межстрановые транзитные связи сформировались как один из важнейших экономических и геополитических факторов в истории человечества. Через них издревле осуществлялось движение товаров, людей, информации и культур. Развитие транзитных систем в основном тесно связано с торговыми путями, инфраструктурой, международными политическими отношениями и технологическим развитием.

Kalit so'zlar: transport logistikasi, Rim yo'llari, tranzit tashuvlar rivojlanish tarixi, avtomobil transporti, Buyuk ipak yo'li, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni.

Ключевые слова: транспортная логистика, римские дороги, история развития транзитных перевозок, автомобильный транспорт, Великий шелковый путь, экономика страны.

Tranzit aloqalarining G'arbda shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, qadimgi davrlardan to zamonaviy zamongacha uzluksiz rivojlanib kelgan. Antik davrda Rim imperiyasi tomonidan qurilgan keng ko'lamli yo'l tarmoqlari G'arb dunyosida dastlabki mintaqalararo tranzit tizimining asosini yaratdi. "Rim yo'llari" deb atalgan bu tarmoqlar harbiy, savdo va ma'muriy maqsadlarda xizmat qilgan bo'lib, imperiyaning barcha qismlarini bir-biri bilan bog'lab turardi. Shu tariqa, transport va aloqa tizimi iqtisodiy va siyosiy birlashuvni ta'minlagan muhim omilga aylandi. O'rta asrlarda, feodal tarqoqlik sharoitiga qaramay, tranzit aloqalari o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Yevropada yirik savdo markazlari va yarmarkalar o'rtasida yo'lga qo'yilgan aloqalar mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirdi. Ayniqsa, Shimoliy Yevropa savdo ittifoqi — Ganza ittifoqi — dengiz va quruqlik tranzitining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shu davrda Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasida amalga oshirilgan savdo ham G'arbiy mintaqalarda tranzit tizimining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

XV–XVI asrlarga kelib, Buyuk geografik kashfiyotlar davri G'arbda tranzit aloqalarining yangi bosqichini boshlab berdi. Yangi dengiz yo'llarining ochilishi natijasida Atlantika okeani orqali Yevropa, Afrika va Amerika o'rtasida o'zaro tranzit munosabatlari shakllandi. Portugaliya, Ispaniya, Angliya va Gollandiya kabi davlatlar yangi savdo yo'llarini egallab, xalqaro tranzit tizimining rivojlanishiga yo'l ochdilar. XVIII–XIX asrlarda Sanoat inqilobi transport vositalarining keskin rivojlanishiga sabab bo'ldi. Temiryo'llarning qurilishi, bug' kemalarining paydo bo'lishi va yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasi Yevropada tez va samarali tranzit aloqalarini yaratdi. Bu davrda xalqaro savdo hajmi ortdi, shaharlar o'rtasida muntazam yo'lovchi va yuk tashish tizimi yo'lga qo'yildi. Temiryo'l va port infratuzilmalari orqali sanoat mahsulotlari tezda kerakli bozorga yetkazib berila boshlandi.

XX asrga kelib, avtomobil transporti va aviatsiyaning rivojlanishi tranzit aloqalarining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Yevropada magistral avtomobil yo'llari tizimi, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin kengaytirildi. Yevropa Ittifoqi tuzilishi bilan esa a'zo davlatlar o'rtasidagi tranzit erkinligi kuchaytirildi, chegaralardagi to'siqlar sezilarli darajada kamaytirildi. XX–XXI asrlarda logistik markazlar, konteyner tashish tizimi va zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tranzit aloqalari yanada global tus oldi. Bugungi kunga kelib, G'arbda tranzit aloqalari nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki siyosiy va madaniy integratsiyani ham ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Xalqaro transport yo'llari va multimodal tashish tizimlari orqali G'arb mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va savdo hajmi doimiy ravishda ortib bormoqda.[1]

Eng qadimgi tranzit yo'llaridan biri bu — Buyuk Ipak yo'li bo'lib, u Markaziy Osiyo orqali Xitoy va Yaqin Sharq va Yevropa bilan bog'lagan. Bu yo'l nafaqat tijoratni rivojlantirgan, balki xalqlar o'rtasida madaniy va ilmiy almashinuvga xizmat qilgan. Shuningdek, qadimgi Misr, Hindiston va Mesopotamiya hududlarida ham daryo va dengiz yo'llari orqali mintaqaviy savdo-tranzit tizimlari mavjud bo'lgan. O'rta asrlarda tranzit aloqalar kengayib, dengiz savdosi rivojlandi. XV–XVI asrlarda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Yevropa davlatlari Osiyo va Afrika bilan dengiz orqali bog'lana boshladi. Portugaliyaliklar va ispanlar tomonidan yangi dengiz yo'llari ochilib, global savdo tarmog'i paydo bo'ldi. Bu davrda tranzit faqat quruqlikda emas, balki okeanlar orqali ham amalga oshirila boshladi.

XVIII–XIX asrlarda Yevropada boshlangan sanoat inqilobi natijasida transport vositalari rivojlanib, tranzit aloqalar tubdan o'zgardi. Temiryo'l tarmog'ining paydo bo'lishi mamlakatlararo yuk tashish tizimini tezlashtirdi va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirdi. Bu davrda xalqaro tranzit tizimlarining huquqiy va iqtisodiy asoslari shakllana boshladi. XX asrda avtomobil va aviatsiya vositalarining ommalashuvi tranzit aloqalarining yangi bosqichini boshlab berdi. 1944 yildagi Chikago konvensiyasi xalqaro havo transportining asosiy me'yorlarini belgiladi. Shuningdek,

Yevropa va Osiyo o'rtasida avtomobil yo'llarini birlashtiruvchi tizimlar (masalan, E-road network) shakllana boshladi. Hozirgi kunda mamlakatlararo tranzit tizimlari nafaqat geografik, balki raqamli shaklda ham rivojlanmoqda. Global logistika kompaniyalari, konteyner tashish tizimi va xalqaro multimodal transport xizmatlari orqali tovarlar butun dunyo bo'ylab tez va samarali harakatlanmoqda. "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi (Xitoy) kabi yirik infratuzilma loyihalari orqali Yevroosiyo bo'ylab tranzit imkoniyatlari kengaymoqda. Globalizatsiya jarayonining chuqurlashuvi va xalqaro savdo hajmining ortishi mamlakatlararo tranzit aloqalarining rolini keskin oshirdi. Bugungi kunda tranzit yo'llar nafaqat mintaqaviy integratsiya omili, balki davlatlarning iqtisodiy o'sishida strategik resurs sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, geografik jihatdan qulay joylashgan davlatlar uchun tranzit infratuzilmasi – avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz yo'llari orqali yuk tashish imkoniyatlari – iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Tranzit aloqalari mamlakatlar iqtisodiyotiga quyidagi asosiy yo'llar bilan ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. Moliyaviy daromad manbai: Tranzit xizmatlari uchun undiriladigan bojxona to'lovlari, yig'imlar va infratuzilma xizmatlari davlat byudjetiga barqaror daromad keltiradi. Masalan, dengiz portlari orqali o'tuvchi yuklar yoki xalqaro temir yo'l liniyalari orqali amalga oshiriladigan tranzitlar katta iqtisodiy foyda keltiradi.

2. Ish o'rinlari yaratish: Transport-logistika tizimining kengayishi, omborxona, terminal, ekspeditorlik va texnik xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlari ochilishiga olib keladi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshiradi.

3. Infratuzilma rivoji: Tranzit salohiyatini kengaytirish ehtiyoji zamonaviy yo'llar, ko'priklar, bojxona punktlari, temir yo'l stansiyalari va boshqa ob'ektlarning qurilishi orqali infratuzilma sifatini oshiradi.

4. Investitsiyalar oqimini jalb etish: Rivojlangan tranzit tizimi xorijiy investitsiyalar uchun jozibador muhit yaratadi. Chet ellik sarmoyadorlar barqaror va qulay logistika tizimi mavjud bo'lgan hududlarda o'z loyihalarini amalga oshirishga intiladilar.

5. Mintaqaviy integratsiyaga hissa: Tranzit aloqalari qo'shni va hamkor davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy hamkorlikni chuqurlashtiradi. Bu jarayon barqaror savdo munosabatlarini shakllantiradi va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.[2]

O'rta asrlar, milodiy VII-XV asrlar oralig'idagi davrda G'arbda tranzit aloqalarining rivojlanishi sezilarli darajada cheklangan bo'lsa-da, bu davrda mavjud savdo tarmoqlari va hududlararo aloqalar o'rta asrlar iqtisodiyoti va ijtimoiy tizimining ajralmas qismi bo'ldi. Ushbu davrda, ayniqsa, ikki asosiy savdo tarmog'i, ya'ni Ipak yo'li va Ganza ittifoqi tranzit aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ipak yo'li (qadimgi savdo yo'li) O'rta asrlarda ham G'arb va Sharq o'rtasidagi eng muhim tranzit yo'llaridan biri sifatida xizmat qilgan. Ipak yo'li orqali Sharqdan (Xitoy, Hindiston,

Fors) Yevropaga mahsulotlar, jumladan, ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar va boshqa qo'shma resurslar yetkazib berilgan. O'rta asrlarda, Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo aloqalari G'arbda yangi mahsulotlarning paydo bo'lishiga va iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Bundan tashqari, Ipak yo'li orqali o'tgan savdo vositalari nafaqat tovarlar, balki madaniyat va texnologiyalarni ham bir mamlakatdan boshqasiga olib kelgan. G'arbda Sharq madaniyati, ilm-fani va diniy qarashlar (masalan, Islom dini) keng tarqaldi. Bularning barchasi tranzit aloqalarining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta'sirlarini kuchaytirgan omillar sifatida o'zining ahamiyatini ko'rsatgan. O'rta asrlar davomida, G'arbda savdo va tranzit aloqalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir muhim omil bu Ganza ittifoqi edi. Ganza ittifoqi (XIV asrda tashkil topgan) Shimoliy Yevropaning savdo tarmog'idir. Ganza ittifoqi tarkibiga kirgan shaharlarda (masalan, Gdansk, Lübeck, Hamburg) keng qamrovli savdo aloqalari rivojlandi. Ular o'rtasida savdo, shu jumladan, dengiz savdosi va quruqlik savdosi amalga oshirildi. Ganza ittifoqi tomonidan tashkil etilgan savdo tarmog'ida mahsulotlar (masalan, dengiz baliqlari, guruch, xom ashyo, metall va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari) Yevropaning turli hududlari o'rtasida tranzit qilinardi. Ganza ittifoqi orqali amalga oshirilgan savdo o'zining yirik hududiy o'lchami bilan farq qildi va Yevropaning iqtisodiy integratsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.[3]

O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, mamlakatimizning Markaziy Osiyodagi markaziy geografik joylashuvi tranzit salohiyatini yuksaltirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. "Temir yo'l diplomatiyasi", xalqaro avtomobil yo'llari, aerotransport va multimodal tashish yo'nalishlari orqali O'zbekiston Xitoy, Rossiya, Yevropa, Janubiy Osiyo va Fors ko'rfazi davlatlarini bog'lovchi muhim logistika markaziga aylanishi mumkin. Mamlakatning tranzit salohiyati deganda uning hududiy-geografik joylashuvi, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, tashqi iqtisodiy aloqalari va xalqaro integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki orqali boshqa davlatlar o'rtasidagi yuk va yo'lovchi tashuvlarini amalga oshirish imkoniyatlari tushuniladi. Bu salohiyat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilish barobarida, uning geosiyosiy nufuzini ham belgilaydi.

Tranzit salohiyatning eng muhim omillaridan biri mamlakatning geografik joylashuvidir. Masalan, O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, u Yevropa, Osiyo, Xitoy, Hindiston, Rossiya kabi yirik bozorlarga chiqish uchun qulay geografik o'tish nuqtasini tashkil etadi. Bunday joylashuv, ayniqsa, "Sharq-Mag'rib" va "Shimol-Janub" yo'nalishlarida xalqaro tranzit marshrutlarining shakllanishiga zamin yaratadi. Tranzit salohiyatni ro'yobga chiqarishda temir yo'l, avtomobil yo'llari, havo va daryo transporti infratuzilmasining holati muhim ahamiyatga ega. Yaxshi rivojlangan va modernizatsiyalashgan infratuzilma xalqaro tranzit xizmatlarining sifatini oshiradi, yuk tashish tezligi va xavfsizligini ta'minlaydi.

O'zbekiston temir yo'l tarmoqlarining Afg'oniston, Turkmaniston, Qozog'iston va Tojikiston bilan bog'langanligi tranzit imkoniyatlarini kengaytiradi. Tranzit salohiyatni samarali boshqarish uchun xalqaro huquqiy me'yorlarga muvofiq keluvchi milliy qonunchilik zarur. Xususan, bojxona tartib-taomillari, transport-logistika faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, xalqaro konvensiyalar bilan uyg'unlashgan normativ hujjatlar mamlakatning tranzit yo'li sifatida ishonchliligini ta'minlaydi. [4]

Zamonaviy logistika markazlari, omborxona infratuzilmasi va bojxona xizmatlari yuqori darajada rivojlangan bo'lishi tranzit yuklarning samarali qayta yuklanishi va qayta ishlanishi imkonini yaratadi. O'zbekistonda yaratilgan erkin iqtisodiy zonalar (EIFZ) orqali import, eksport va tranzit yuklarga alohida preferensiyalar qo'llanilishi investitsion muhitni yaxshilaydi.

Mamlakatning tashqi siyosatdagi barqarorligi, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari va xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorligi tranzit salohiyatini mustahkamlaydi. Mintaqaviy integratsiya tashabbuslari, masalan, TRACECA, "Bir kamar — bir yo'l" kabi loyihalarda ishtirok etish ham muhim omillardan biridir. Mamlakatlarning tranzit salohiyati doimo dinamik o'zgarib boradi. Global iqtisodiy ,texnologik taraqqiyot va mintaqaviy siyosiy vaziyat ushbu jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning tranzit salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishda siyosiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Transport va logistika sohasida xalqaro tranzit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun siyosiy muhitning barqarorligi va mintaqaviy davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar muhim shartlardan biridir.

Siyosiy barqarorlik birinchi navbatda, mamlakat ichkarisida qonun ustuvorligi, xavfsizlik va iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi. Bu omillar xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratadi, tashuvchilar va logistika kompaniyalarining mamlakat orqali yuk tashish ishonchini oshiradi. Siyosiy beqarorlik, aksincha, transport yo'llarining xavfsizligini xavf ostiga qo'yib, tranzit imkoniyatlarini cheklaydi hamda xalqaro yuk oqimlarining boshqa alternativ marshrutlarga yo'nalishiga olib keladi. Siyosiy barqarorlikning yana bir muhim jihati – davlat siyosati va strategik dasturlarning izchilligi hamda uzviyligidir. Agar hukumatlar tranzit infratuzilmasiga uzoq muddatli sarmoya kiritish, transport va bojxona tizimlarini zamonaviylashtirish, xalqaro transport koridorlarida ishtirok etish siyosatini muntazam davom ettirsa, bu mamlakatning tranzit salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlik esa tranzit jarayonlarining uzluksizligi va samaradorligi uchun zarur. Transport tarmoqlari ko'plab davlatlarning hududlari orqali o'tganligi sababli, davlatlar o'rtasida o'zaro kelishuv va hamkorlik talab etiladi. Xalqaro transport bitimlari, bojxona konvensiyalari, "yagona oyna" tamoyili asosida hujjatlarni soddalashtirish kabi tashabbuslar tranzitni sezilarli darajada tezlashtiradi va arzonlashtiradi. Mintaqaviy hamkorlik platformalari – masalan, TRACECA (Transport

koridori Yevropa–Qora dengiz–Kavkaz–Markaziy Osiyo), “Bir kamar, bir yo‘l” loyihasi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va boshqa integratsion tashabbuslar – mamlakatlar o‘rtasidagi tranzit yo‘llarini rivojlantirish, yagona transport siyosatini shakllantirish va umumiy logistika tizimlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.[5]

Tranzit salohiyati mamlakatning hududiy joylashuvi, transport infratuzilmasi rivojlanish darajasi va tashqi iqtisodiy aloqalaridagi faolligiga bog‘liq holda shakllanadi. Uni baholash uchun bir qator metodlar va ko‘rsatkichlardan foydalaniladi, chunki tranzit imkoniyatlar faqat geografik o‘rin bilan emas, balki infratuzilma sifati, huquqiy me‘yorlar, xizmat ko‘rsatish darajasi va xalqaro logistika tizimlaridagi integratsiya holati bilan ham belgilanadi. Tranzit salohiyatini baholashda keng qo‘llaniladigan metodlardan biri tahliliy baholash usuli hisoblanadi. Bu usulda mamlakatning transport tarmoqlari (avtomobil, temiryo‘l, havo va dengiz yo‘llari) infratuzilmasi holati, mavjud tranzit yo‘laklari va ularning o‘tkazish quvvati o‘rganiladi. Shuningdek, yo‘l-transport infratuzilmasining xalqaro standartlarga muvofiqligi va logistik xizmatlar sifati ham tahlil qilinadi.

Ikkinchi muhim yondashuv — ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholashdir. Bu usulda maxsus indikatorlar tanlanadi va ular orqali tranzit imkoniyatlari raqamli ifodalanadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan indikatorlar quyidagilardan iborat:

Transport infratuzilmasi zichligi (km/1000 km²) va sifati

Tranzit yuk oqimi hajmi (million tonna yoki konteyner TEU ekvivalentida)

O‘tkazuvchanlik quvvati va mavjud quvvatdan foydalanish darajasi

Transport-logistika xarajatlari (bir tonna/km uchun)

Rasmiy hujjatlashtirish jarayonlari tezligi va soddaligi (bojxona nazorati, tranzit ruxsatnomalari)

Xalqaro logistika samaradorligi indeksi (LPI – Logistics Performance Index)

Tranzit vaqt ko‘rsatkichlari (mahsulotlarning o‘rtacha yetib kelish muddati)

Tashqi savdo aylanmasida tranzit yuklarning ulushi.

Bundan tashqari, ekspert baholash metodikasi ham qo‘llaniladi. Unda soha mutaxassislari, transport va logistika bo‘yicha ekspertlarning fikrlari asosida mamlakat tranzit salohiyatining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, raqamli ko‘rsatkichlarni to‘plash qiyin bo‘lgan holatlarda juda foydali.[6]

Zamonaviy tadqiqotlarda tranzit salohiyatini baholashda modellashtirish va prognozlash usullari ham keng qo‘llanilmoqda. Simulyatsion modellar yordamida mavjud infratuzilmaning rivojlanish ssenariylari tahlil qilinadi, transport oqimlari harakati va ularga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar o‘rganiladi. Bu metod kelgusidagi infratuzilma investitsiyalarini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda esa Jahon banki, BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar asosida tranzit salohiyati baholanadi. Masalan, Jahon bankining "Doing Business" va "LPI" indekslari

davlatlarning logistika samaradorligi va transport tizimining raqobatbardoshligini baholashda asosiy manba hisoblanadi. Umuman olganda, tranzit salohiyatini to'liq baholash uchun yuqoridagi metodlar va indikatorlardan birgalikda va tizimli ravishda foydalanish zarur. Bu mamlakatning global va mintaqaviy savdo-sotiqdagi o'rnini aniqlash, tranzit imkoniyatlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning tranzit salohiyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlash va tashqi savdo-hamkorlik aloqalarini kengaytirish zarurdir. Siyosiy ishonch va xalqaro kooperatsiya mavjud bo'lmagan sharoitda tranzit salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish imkoni keskin pasayadi. Mamlakatlararo tranzit aloqalari iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat davlat byudjetiga daromad keltiradi, balki xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qiladi va bandlik darajasini oshiradi. Shu bois, har bir mamlakat o'z tranzit salohiyatidan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-martdagi "Tranzit va logistika tizimini rivojlantirish dasturi" to'g'risidagi qarori.
2. Jahon Banki: "Doing Business 2020" hisobotlari – Xalqaro savdo va logistika samaradorligi ko'rsatkichlari.
3. "Transport va logistika tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari", ilmiy maqola, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi nashri.
4. "O'zbekiston transport va logistika infratuzilmasi istiqbollari", Asqarov B. va boshqalar, Toshkent, 2023-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi "Transport to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahrir, 2022-yil.
6. Xudoyberdiyev A., Yusupov S. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: "Iqtisodiyot", 2021.